

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JUMANIYOZOV XUSHNUD SAPAYEVICH

**MARKAZIY OSIYODAGI XALQARO MUNOSABATLAR RIVOJIDA
GEOSIYOSIY OMILLARNING ROLI (XX-XXI asr boshlari)**

07.00.03 – Jahon tarixi

**Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (DSc)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (DSc) dissertation

Jumaniyozov Xushnud Sapayevich

Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabatlar rivojida geosiyosiy omillarning roli (XX-XXI asr boshlari).....

Жуманиёзов Хушнуд Сапаевич

Роль геополитических факторов в развитии международных отношений в Центральной Азии (XX-начало XXI вв.)

Jumaniyozov Xushnud Sapayevich

The role of geopolitical factors in the development of international relations in Central Asia (early 20th-21st centuries)

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JUMANIYOZOV XUSHNUD SAPAYEVICH

**MARKAZIY OSIYODAGI XALQARO MUNOSABATLAR RIVOJIDA
GEOSIYOSIY OMILLARNING ROLI (XX-XXI asr boshlari)**

07.00.03 – Jahon tarixi

**Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Tar503 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tashgiv.uz) va “ZiyoNET” axborot-ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Kirgizbayev Abdugappor Karimjonovich**
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Rahimov Mirzohid Akramovich**
tarix fanlari doktori, professor

Azizbek Xolliyev Go‘zalovich
tarix fanlari doktori, professor

Abdullayev Diyorjon Nodirjon o‘g‘li
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 15 noyabr soat 10-00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy.) Tel.: (99871) 276-76-51; faks: (99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-76-51; faks: (99871) 276-7651.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “ ___ ” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “ ___ ” _____ dagi ___ -raqamli reestr bayonnomasi).

A.Asqarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, akademik, t.f.d.

Y.R.Tayronov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy kengash kotibi t.f.n.

F.O.Ismatullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning qaysiki mintaqasida bo‘lmasin vujudga kelgan har bir davlat, saltanat, sivilizatsiya ma’lum bir tarixiy sharoitda, qator tabiiy, geografik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy omillar sabab yuz bergan. Ijtimoiy taraqqiyotning yuksalib borishi, turli saltanatlar, davlatlarning paydo bo‘lishi, milliy manfaatlarining mintaqa doirasidan quloq otib chetga chiqishi sabab xalqaro maydonda jamiyat hayotining turli sohalarida munosabatlar yo‘lga qo‘yildi. Qator mamlakatlardagi erishilgan yutuqlar, natijalar, rang-baranglik qayd etib o‘tilgan omillarga bog‘liq. Natijada ushbu ko‘rinishdagi rang-barang tUSDagi omillarning o‘rnini, ahamiyatini tahlil qilish, shuningdek ularga egalik qilish, nazoratda ushlab muhim strategik vazifa sifatida qarala boshlandi. Negaki qayd etib o‘tilgan ona tabiatning bebaho ne‘matlarining yer yuzida turlicha joylashuvi, ularning ham makonda, ham zamonda cheklanganligi, o‘zida borayotgan insoniyat manfaatlarining esa cheksizligi bois bu masalalarning dolzarbligi yanada oshib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2016-yil 18-oktabrda Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasidagi nutqida shunday ta’kidlagan edi: “Islom olami ulkan iqtisodiy, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to‘g‘ri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo‘llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko‘rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha sohalarining rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi”¹. Shu sabab yangi ming yillikda xalqaro maydonda davlatlarning geografik joylashuvi, ularning ijtimoiy, geosiyosiy jihatlarni muhokama qilish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Xalqaro munosabatlar maydonida yuz bergan o‘zgarishlarning geosiyosiy jihatlarni bilish, o‘rganish, tahlil qilish, tegishli ilmiy xulosalar chiqarish murakkab vazifalardan hisoblanadi. Chunki yangi ming yillik arafasida sodir etilgan siyosiy o‘zgarishlar negizida qator geosiyosiy omillar bo‘lib ular shubhasiz, dunyoning geografik-siyosiy tuzilishini va xaritasining tubdan yangilanishiga olib keldi. Qator sotsialistik o‘tmishga ega bo‘lgan davlatlar o‘z siyosiy mustaqilligini tinch yo‘l bilan qo‘lga kiritdi. Bu davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni tubdan yangilash yo‘liga qadam qo‘ydi. Ular dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o‘z mavqegini mustahkamlashga intilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmonida ko‘rsatib o‘tilganidek “xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqisiyosat yuritishga yo‘naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil

¹Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017.-37 - б.

qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash"² eng asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Bugun Yangi O'zbekiston sharoitida xalqaro munosabatlar rivojini tahlil qilish, tegishli ilmiy xulosalar ishlab chiqish mamlakatning yangi taraqqiyot strategiyasi bilan bog'liq vazifalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan muammoning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Birinchi, xalqaro maydonda turli geosiyosiy, mafkuraviy tortishuvlar, to'qnashuvlar davom etayotgan hozirda turlicha mazmundagi manfaatlar to'qnashuvi xalqaro aloqalarda o'zaro ishonch va hamkorlik munosabatlariga putur yetishiga, qarama-qarshilik va nosog'lom raqobat kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayonda qulay geografik makon, tabiiy zahiralari, strategik yo'llar uchun kurashish kabi geostrategik vazifalar yechimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi, tarixiy jarayonlar rivojida geosiyosiy omillarning rolini yangicha dunyoqarash asosida yo'lga qo'yish vaqti allaqachon kelib bo'ldi. Negaki sobiq ittifoq davrida bu fan agressiv faoliyatni tahlil etuvchi fan sifatida olib qaralganligi bu sohada to'g'ridan-to'g'ri tadqiqotlar ochiq holatda olib borilmadi.

Uchinchi, Markaziy Osiyo mintaqasida milliy davlatchilikning rivojlanib kelishini tahlil etishda tarixiy, geografik, iqtisodiy, madaniy, diniy va shu kabi omillar bilan birga geosiyosiy uslublar va aktorlarning ilmiy tahlili, shuningdek insoniyat tarixining ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida geosiyosiy jarayonlar rivojini davrlashtirish muammolari ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchi, O'zbekiston qadimdan geografik jihatdan muhim transport-kommunikatsiya tizimida muhim o'rin tutib kelgan. Vatanimiz buyuk ipak yo'lining muhim chorrahalarida joylashgan bo'lib, ipak yo'lining mavqeini qayta tiklash bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bizning hududimiz Xitoy, Eron, Old Osiyo, Kichik Osiyo va Shimoliy Afrika bilan, Hindistonni Rossiya va Sharqiy Yevropa bilan bog'lanishida muhim ko'priklar vazifasini bajaradi. Ushbu mintaqalar misolida jahonning yirik moliya markazlari, xom-ashyo bazalari, ishlab chiqaruvchilar, hamda yirik savdo markazlarini ko'rish mumkin.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Xalqaro maydonda geosiyosiy omillar roli masalasi bilan bog'liq izlanishlar Ingliz geosiyosiy

² "Ўзбекистон Республикаси янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. XXI асп. 2017- йил 9-феврал, 6 (692)-сон.

³Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: https://www.yaneuch.ru/cat_02/osnovnye-geopoliticheskie-shkoly/418339.2800335.page1.html; https://vuzlit.com/2305041/formirovanie_osnovnyh_shkol_geopolitiki; <https://www.bibliofond.ru/view.aspx?id=468160>; <https://studfile.net/preview/5771467/page:3/>; <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennaya-geopolitika-rossii-kontseptualnye-osnovy/viewer>; https://en.wikipedia.org/wiki/Council_on_Foreign_Relations; https://ru.wikipedia.org/wiki/Chatham_House; https://ru.wikipedia.org/wiki/Bilderberg_Meeting; https://ru.wikipedia.org/wiki/Стокгольмский_институт_исследования_проблем_мира;

maktabi, Atlantizm maktabi, Neatlantizm maktabi, “Xalqaro munosabatlar bo‘yicha kengash” (AQSh), Xalqaro tadqiqotlar Qirollik instituti (Buyuk Britaniya), Stokgolm xalqaro tinchlik masalalari tadqiqotlari instituti, Bilderberg klubi, Neoevrosiyo yo‘nalishi vakillari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Ingliz geosiyosiy maktabi (Buyuk Britaniya) dunyoning siyosiy tuzilishiga geosiyosiy makon nuqtai nazaridan qarash g‘oyasini ilgari suradi. Unda dunyoning yirik davlatlarini dengiz va quruqlik qudrati nuqtai nazaridan ikkitaga bo‘linishiga e‘tibor qaratadi. Asosiy o‘lkalar ustidan nazorat o‘rnatishda makon omili rolini keng tahlil qilingan, geosiyosiy jarayonlar rivojini davrlashtirish bilan bog‘liq xulosa va takliflar ishlab chiqilgan. Atlantizm maktabi tarafdorlari (G‘arbiy Yevropa va AQSh) o‘z tadqiqotlarida asosiy e‘tibordagi geosiyosiy mezonlar bilan birgalikda aholi manfaatlari, psixologiyasiga ham keng e‘tibor qaratishgan Atlantistlar (AQSh) nazorat etadigan geosiyosiy makondagi boshqaruv tizimida Shimoliy Amerika va G‘arbga xos bo‘lgan turmush tarzi, aholi mentaliteti, normalarga ham katta ahamiyat berib, uning jamiyat hayotida ustunligini ta‘minlashga harakat qiladilar. Targ‘ib etilayotgan demokratik tizim ushbu qoidalar bilan asoslanishi lozim edi; Yangi neoatlantistik maktab tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalar umumsayyoraviy ahamiyat kasb etishi lozim bo‘lgan. Shunday ekan neoatlantistlar o‘z e‘tiborlarini ehtimoli mumkin bo‘lgan qarama-qarshilikka doim tayyor turish, G‘arbga qarshi kontinental alyans tuzilishiga yo‘l qo‘ymaslik; lokal xarakterdagi to‘qnashuvlarni sivilizatsiyalararo xarakter olishiga yo‘l bermaslik, islom davlatlari o‘rtasidagi turli mazmundagi kelishmovchiliklardan foydalanish, G‘arb manfaatlariga xizmat qiluvchi turli xalqaro institutlarni ko‘paytirish bilan bog‘liq tadqiqotlarga alohida e‘tibor berishadi; “Xalqaro munosabatlar bo‘yicha kengash” tashkiloti (AQSh) vakillari AQSh ning jahon hamjamiyatiga nisbatan olib boradigan strategiyasini ishlab chiqish, “Dunyo hukumati”ni tashkil etish va sayyorani to‘lig‘icha yagona qolipga solishni (mondializm) maqsad qilib faoliyat yuritgan; Xalqaro tadqiqotlar Qirollik instituti (Buyuk Britaniya) xalqaro munosabatlarni tahlil etish borasida katta tajribaga ega. O‘z tahlillarini “International Affairs”, “The World Today” va “Journal of Cyber Policy” jurnallarida e‘lon qilib boradi. Keyingi yillarda asosan katta e‘tiborni sobiq ittifoq hududida vujudga kelgan mustaqil davlatlardagi ijtimoiy-siyosiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlash, mintaqadagi barqarorlik va xavfsizlik, Yevropaning Rossiya xom-ashyosiga tobeligini bartaraf etish, axborot xavfsizligi masalalariga qaratmoqda; Stokgolm xalqaro tinchlik masalalari tadqiqotlari instituti (Shvesiya) tomonidan xalqaro maydondagi tinchlik, xavfsizlik, barqarorlik, to‘qnashuvlar bilan bog‘liq izlanishlarni olib boradi. Keyingi paytlarda o‘z e‘tiborini mintaqaviy va global xavfsizlik, harbiy konfliktlar va ularning yechimi, harbiy harajatlar, qurollanishni nazoratga olish masalalariga qaratmoqda; Nemis analitik markazi hisoblanmish Germaniya xalqaro munosabatlar va xavfsizlik instituti (Germaniya) Federal hukumat bilan yaqin aloqada bo‘lgan yarim rasmiy tashkilot Bundestag (Germaniya parlamenti) va federal hukumatga tashqi va xavfsizlik siyosati bo‘yicha maslahat beradi va Yevropa Ittifoqi, NATO va Birlashgan Millatlar tashkilotida Germaniyaga

taalluqli masalalar bo'yicha strategiyalar yaratishga harakat qiladi; Bilderberg klubi yoki Bilderberg guruhi yangi jahon urushiga yo'l qo'ymaslik muammolari bilan shug'ullanadi. Keyinchalik xalqaro maydonda g'arb namunasidagi erkin bozor iqtisodiyoti tizimini joriy etilishi bilan bog'liq masalalar ustida ish olib boradi; Geosiyosiy harakatlar tizimida Neoyevrosiyo yo'nalishi (Rossiya) tadqiqotlarida "passionarlik nazariyasi" geografik omillarning aholi etnik qadriyatlari bilangina bog'lamsdan, ayni damda ularning tashqi davlatlar bilan bo'ladigan munosabatlarda ham ustuvorligini ilgari suradi. Sobiq ittifoq qulashi arafasida bu omillar o'zining barhayotligini, hal etuvchi omil ekanini ko'rsatgan edi. Shuningdek ruslarni "islom dunyosi" (turk etnoslari) bilan ittifoqi zarurligini ta'kidlaydi. Ilgari surayotgan passionarlik nazariyasi Rossiya tashqi siyosatidagi vektor Osiyoga qaratilishi lozimligini ilgari suradi.

Ushbu tahlillardan keng foydalanilgan holda insoniyat taraqqiyotida geosiyosiy omillar rolini tahlil etish quyidagi ustuvor yo'nalishlarda olib borilmoqda: Tarixiy jarayonlar rivojida geosiyosiy omillarning rolini tahlil qilish; tarixiy jarayonlar rivojini davrlashtirish muammolariga e'tibor qaratish. Bu masalaning yechimida mintaqamiz rivojidadagi voqeliklar nuqtai nazaridan yondashish; Xalqaro munosabatlar takomilida klassik geosiyosatning asosiy g'oyalari va tamoyillarining tutgan o'rnini tahlil qilish; dastlabki geosiyosiy bilimlarni va jarayonlarni tahlil qilish; Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlar rivojida "Katta o'yin" konsepsiyasi va uning geosiyosiy mohiyatini yoritish; G'arbiy Yevropadagi geosiyosiy nazariyalar, ularning ijtimoiy taraqqiyotdagi rolini yoritish, geosiyosiy jarayonlarning rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish; "Yangi katta o'yin" konsepsiyasi va uning Yaqin Sharq va Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlar rivojiga ta'sirini yoritish va sh.k.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib xalqaro munosabatlar tizimida geosiyosiy jarayonlar alohida tadqiqot sohasi sifatida tahlil etila boshlandi. Bu davr klassik geosiyosat vakillari sifatida nemis olimi F.Ratsel, shved davlatshunosi R.Chellen, amerikalik admiral A.Mexen, ingliz geograf nazariyotchisi X.Makkinder, nemis olimi K.Xausxofer, amerikalik N.Spikmen va rus iqtisodchi olimi P.N.Saviskiylarning tadqiqotlarini aytib o'tish mumkin. Ular tomonidan dastlab quruqlik va dengiz "hukmdor"lari o'rtasida doimiy qarama-qarshilik bo'lishi g'oyasi, "Buyuk quruqlik" nazariyasi; insoniyat tarixiga daxldor makonlarga ega bo'lgan markaz – xearthland muammosi, jahon siyosatida strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalish – rimland masalasi; yetakchi xorijiy davlatlarning geosiyosiy ittifoqchiligini nazariy asoslash, davlatlarning strategik xom-ashyo resurslariga egaligi, uning davlat, mintaq va global geosiyosiy munosabatlardagi o'rni kabi masalalar o'rganilgan. Lekin bu tadqiqotlar muayyan milliy qobiq doirasida ekanligini qayd etish lozim.

G'arb tadqiqotchilaridan E.Milner hamkorlik masalasini tadqiq etar ekan asosiy e'tiborini hamkor davlatlarning umumiy maqsadini, manfaatdorlik tomonlarini va bu manfaatdorlik o'zaro xarakterga ega ekanini ilgari suradi⁴. Nemis tadqiqotchisi Karl Doych hamkorlik masalasida geografik yaqinlik, hamkorlikning doimiyliigi,

⁴ Milner H. Internatsional Theories of Cooperation: Strengths and Weaknesses // World Politics/ 1992. p. 465

manfaatlar mushtarakligiga e'tibor qaratadi⁵. Shved tadqiqotchisi B.Xettne o'z tadqiqotlarida davlatlarning xalqaro hamkorligiga oid tabiiy chegaralar, geografik va ekologik birlik, ijtimoiy-siyosiy tartibot, madaniy muhit, ichki yaxlitlik masalalarini chuqur tahlil etadi⁶.

Tadqiqotchilardan R.M.Alimov, Sh.Paxrutdinov, F.Tolipov, U.Ubaydullayev, S.S.Safoyev, O.Sirojov, S.Sharapovalar⁷ O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari geosiyosatidagi o'ziga xos tutgan o'rnini ijtimoiy-siyosiy boshqaruv hamda xavfsizlik nuqtai-nazardan tahlil qilganlar. Ushbu mavzu bo'yicha Markaziy Osiyoning o'zaro geosiyosiy muammolarining iqtisodiy yo'nalishlari Sh.J.Ermatovning nomzodlik dissertatsiya ishida, S.T.A'zamxo'jayevning nomzodlik dissertatsiyasida uning siyosiy yo'nalishlari tadqiq etilgan⁸. Xususan, Sh.J.Ermatov o'z tadqiqotlarida yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirish masalasini, S.T.A'zamxo'jayev xavfsizlikni ta'minlash borasidagi geosiyosiy yondashuvlarni o'rgangan. Mazkur ishlarda O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosatidagi o'rni va uning ijtimoiy siyosiy, ma'naviy qirralari, imkoniyatlari davr va vaziyat nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotchi D.S.Muitov esa, O'zbekiston misolida hududiy yaxlitlik muammosini geosiyosiy nuqtai nazardan tahlil qilish asosida ma'lum bir nazariy va ilmiy xulosalarni ilgari surgan⁹. O.Sirojov "Markaziy Osiyo mintaqasida hamkorlik masalalari" nomli kitobida mintaqaviy hamkorlik jarayonlarini, uning rivojiga ta'sir etuvchi sub'ektiv va ob'ektiv omillarni, hamkorlik borasidagi muammolarni, bu hamkorlikdan ko'zlangan manfaatlarni kengroq tahlil qilgan¹⁰. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur mavzu hozirga qadar ilmiy - tarixiy jihatdan alohida tadqiqot ob'ekti sifatida keng o'rganilmagan. Shu hol mavzuni ilmiy tadqiqotga asos qilib olishga turtki bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining disertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi 2020-2024-yillar mobaynida Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Tarix fakulteti kunduzgi doktoranturasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi XX-XXI asr boshlari Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabatlar rivojida turli mazmundagi geosiyosiy omillarning rolini tahlil etish, tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

⁵ Doych K. The analysis international relations. Englewood eliffs N.J.: Prentise – Hall, 1978. P. 134

⁶ Hettne B. The future of regionalism: old divides, new frontiers. – Routledge, London New York, 2008.

⁷ Алимов Р.М. Центральная Азия: Общность интересов. –Т.: Шарқ, 2005. – с 464. Толипов Ф.Ф. Большая стратегия Узбекистана в контексте геополитический идеологической трансформации Центральной Азии-Т.: Фан, 2005. Пахрутдинов Ш.И. Тахдид халокатли куч. (мақола ва маърузалар тўплами). -Т.: Академия, 2001. Сафоев. С.С. Марказий Осиёдаги геосиёсат.-Т.: ЖИДУ, 2005. –160 б. Сирожов О. Марказий Осиё минтақасида ҳамкорлик масалалари.-Тошкент: "Ўзбекистон", 2016.-214 б. Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, хавфсизлик). – Т.:Академия.- 2006.- 240 б.

⁸ Эрматов Ш. Ўрта Осиё ва Қозоғистон ягона иқтисодий ҳудуди шаклланишининг хусусиятлари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун дисс. автореферати. –Т.: 1999. 22-б. Аъзамхўжаев С. Внешнеполитические отношения США с государствами Центральной Азии. Автореф. диссер. на соискание ученой степени канд. полит. наук. –Т.: 2005.-С.18.

⁹ Муитов Д.С. Худудий яхлитлик муаммоси: геосиёсий таҳлил таҷрибаси (Ўзбекистон мисолида) сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: УзДЖКА, 2003.-158 б.

¹⁰ Сирожов О. Марказий Осиё минтақасида ҳамкорлик масалалари.-Тошкент: "Ўзбекистон", 2016.-214 б.

- Insoniyatning, davlatlarning tarixiy taraqqiyot jarayonida ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojiga, xom-ashyo manbalariga, xizmat bozorlariga, fan-texnika yutuqlariga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi sharoitida geosiyosiy omillarning rolini tahlil etish;
- Insoniyat tarixida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar rivojini davrlashtirish muammolariga e'tibor qaratish. Bu masalaning yechimida mintaqamiz rivojidadagi voqeliklar nazaridan yondashish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini asoslash;
- Xalqaro munosabatlar rivojini tahlil qilishda geosiyosiy aktorlar va funksional yondashuvlarning roli, ilmiy ahamiyatini yoritish. Ushbu jarayonlarni chuqur ilmiy, funksional tahlil qilish, unga qanday munosabatda bo'lish, zaruriyat bo'lsa bu jarayonlarga shubha bilan qarash, ehtiyotkorlik singari ko'nikmalarni tarbiyalovchi skeptitsistik funktsiya rolini asoslash;
- Xalqaro maydonda sodir etilayotgan turli ijtimoiy-siyosiy voqeliklarning yuz berishida tabiiy-geografik, siyosiy, iqtisodiy, geografik, diniy omillar bilan bir qatorda geosiyosiy bilimlar va konsepsiyalar ham alohida bir muhim omil ekanligi asoslash. Shuningdek mintaqadagi geosiyosiy jarayonlar rivojida "Katta o'yin" kontsepsiyasi, uning xalqaro munosabatlarga qilgan ta'siri o'rganish, uning xronologik davriga yangicha yondashish;
- Yangi ming yillik arafasida vujudga kelgan "Yangi katta o'yin" konsepsiyasi va uning Markaziy Osiyodagi, Yaqin Sharqdagi namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganish. Shunday sharoitda O'zbekiston tomonidan olib borilayotgan amaliy ruhdagi ahil qo'shnihilikka asoslangan tashqi siyosat, uning mohiyati, asosiy yo'nalishlari, asosiy tashabbuslarini yoritish va shu kabilar.

Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot obekti sifatida XX-XXI asr boshlarida Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar rivoji, unda geosiyosiy ta'limotlar, nazariyalar va omillarning tutgan o'rni, ularning insoniyat tarixida, ijtimoiy taraqqiyotda tutgan rolini yoritish, o'rganish, tegishli taklif va xulosalar qilish tanlangan.

Tadqiqot predmetini XX-XXI asr boshlarida Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tizimida geosiyosiy ta'limotlar, nazariyalar va omillarning tutgan o'rni, ularning insoniyat tarixida, ijtimoiy taraqqiyotda tutgan rolini yoritishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, Farmonlaridagi vazifalar, shuningdek bu jarayonni tahlil etishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlardagi yondashuvlar, ko'rsatmalar, usullar, vositalar tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish metodlaridan keng foydalanildi. Bu metodlardan antik dunyo mutafakkirlari asarlari, klassik geosiyosat vakillarining asarlari chuqur tahlil etildi, umumlashtirildi, ularning dinamikasi tarixiylik va mantiqiylik asosida o'rganildi. Mamlakatimizdagi tadqiqotchilarning asarlari va chet el mutafakkirlari asarlari qiyosiy taqqoslandi. Shu asosda qator taklif va xulosalar ilgari surildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Insoniyatning, davlatlarning tarixiy taraqqiyot jarayonida ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojiga, xom-ashyo manbalariga, xizmat bozorlariga, fan-texnika yutuqlariga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi sabab bu omillarning ahamiyatiga, tahliliga alohida bir davlatning, mintaqaning sub'ektiv manfaatlari nuqtai-nazaridan yondashish umuminsoniy manfaatlarga xizmat qilmasligi asoslab berildi.

Insoniyat tarixida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar rivojini davrlashtirish muammolariga e'tibor qaratilib, geosiyosiy omillar asosida Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar rivojida Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davri; Ahamoniylar davri; Ellinizm davri; Xalifalik davri; Mo'g'ullar davri; Temuriylar davri; Xonliklar davri; Chor Rossiyasi va sovet davri; Belovej shartnomasi davri (1991- yil), ularning o'ziga xos xususiyatlari asoslandi.

Xalqaro munosabatlar rivojini tahlil qilishda geosiyosiy aktorlar va funksional yondashuvlarning roli, ilmiy ahamiyati yoritildi. Xalqaro maydonda shovinistik kayfiyat, mustamlakachilikning yangicha shakldagi ko'rinishlariga ega bo'lish hissi saqlanib qolar ekan turli mazmundagi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy birlashmalarga ko'r-ko'rona ergashmaslik lozim, turli mazmundagi iqtisodiy, texnologik ko'mak, ilmiy-texnik hamkorlikka asoslangan dasturlarda ongli ishtirok etishni zamon talab qilmoqda. Ushbu jarayonlarni chuqur ilmiy, funksional tahlil qilish, unga qanday munosabatda bo'lish, zaruriyat bo'lsa bu jarayonlarga shubha bilan qarash, ehtiyotkorlik singari ko'nikmalarni tarbiyalovchi skeptitsistik funktsiya yangicha yondashuv usuli sifatida asoslandi;

Xalqaro maydonda sodir etilayotgan turli ijtimoiy-siyosiy voqeliklarning yuz berishida tabiiy-geografik, siyosiy, iqtisodiy, geografik, diniy omillar bilan bir qatorda geosiyosiy bilimlar va konsepsiyalar ham alohida bir muhim omil ekanligi asoslandi. Ushbu konsepsiyalar misolida Markaziy Osiyo hududida vujudga kelgan dastlabki geosiyosiy jarayonlar mintaqamizning qator geosiyosiy omillaridan kelib chiqqan holda tahlil qilindi. Mintaqadagi geosiyosiy jarayonlar rivojida "Katta o'yin" kontsepsiyasi, uning xalqaro munosabatlarga qilgan ta'siri o'rganildi, uning xronologik davri 1907-yilgi ingliz-rus bitimi emas, ikkinchi jahon urushidan keyin Hindistonning bo'linib ketishi davrigacha davom etganligi dalillandi.

Tadqiqotlarda xalqaro maydonda vujudga kelgan zamonaviy xalqaro tartibotda muhim ahamiyat kasb etuvchi aktorlar haqida gap borganida "Yangi katta o'yin" konsepsiyasi va uning Markaziy Osiyodagi, Yaqin Sharqdagi namoyon bo'lish holatlariga urg'u beriladi. Lekin bu konsepsiya Shimoliy Afrika va Sharqiy Yevropadagi geosiyosiy jarayonlar rivojiga katta ta'sir qilayotgani ko'rsatib berildi. Shunday sharoitda O'zbekiston tomonidan olib borilayotgan amaliy ruhdagi ahil qo'shnichilikka asoslangan tashqi siyosat, uning mohiyati tahlil etildi. O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning nutqlarida, murojaatlarida, Farmonlaridagi yangi mingyillikda insoniyatni kutayotgan keng qamrovli global muammolarni ilgari surilishi, ijtimoiy hamkorlik global tahdidlarga qarshi kurashning muhim omili ekani, ularni bartaraf etish borasida belgilangan vazifalarni ilmiy tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda faqatgina O‘zbekiston manfaatlari ilgari surilmaganligi, balki umuminsoniy xarakterda ekani ko‘rsatib o‘tildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Xalqaro munosabatlar tarixida geosiyosiy jarayonlar, nazariyalar, omillar bilan bog‘liq xulosalar asosida “Geosiyosat asoslari”, “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi”, “Globallashuv asoslari”, “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari” fanlaridan fan dasturlari, ishchi dasturlar, o‘quv-uslubiy majmualar yaratishda unumli foydalanildi. “Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi” yo‘nalishi bo‘yicha pedagog-kadrlar, ma‘naviy-ma‘rifiy uyushmalar uchun targ‘ibotchilar tayyorlanadigan yo‘nalish talabalari uchun “Geosiyosat asoslari” o‘quv qo‘llanma, “Globallashuv asoslari” fanidan monografiya va o‘quv qo‘llanma, “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari” fanidan o‘quv qo‘llanma, “O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari geosiyosatidagi o‘ziga xos o‘rni”, “Geosiyosat va xalqaro munosabatlar tarixi” nomli monografiyalar tayyorlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Xalqaro munosabatlar tarixini tahlil etishga qaratilgan uslublar, umummetodologik yondashuvlarning mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlarda yaratilgan xalqaro munosabatlar tarixiga, geosiyosiy jarayonlar tahliliga qaratilgan ilmiy va ilmiy-metodologik izlanishlar, amaliyotchi-o‘qituvchilarning, targ‘ibotchilarning tajribasiga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi tadqiqot metodlarining qo‘llangani, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Dissertatsiya natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natija va xulosalaridan “Geosiyosat asoslari”, “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi”, “Globallashuv asoslari”, “O‘zbekiston tarixi”, “Jahon tarixi” fanlaridan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar olib borishda, O‘zbekistonning keng qamrovlik hamkorlikka asoslangan tashqi siyosati bilan bog‘liq ma‘rifiy mashg‘ulotlar tashkil qilishda keng foydalanish mumkin. Shu bilan birga ushbu sohaga oid targ‘ibot-tashviqot ishlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Insoniyat tarixida geosiyosiy omillarning roli masalasiga doir olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, natija va takliflar asosida:

Insoniyatning, davlatlarning tarixiy taraqqiyot jarayonida ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojiga, xom-ashyo manbalariga, xizmat bozorlariga, fan-texnika yutuqlariga bo‘lgan ehtiyojining ortib borishi sabab bu omillarning ahamiyatiga alohida bir davlatning, mintaqaning sub‘ektiv manfaatlari nuqtai-nazaridan yondashish umuminsoniy manfaatlarga xizmat qilmasligi asoslab berildi. Umummilliy manfaatlarni himoya qilishda O‘zbekiston va jahon hamjamiyati hamkorligi

masalalari, bu boradagi ustuvor vazifalar Tarix fakulteti talabalari uchun tayyorlangan “Globallashuv asoslari” nomli darslik (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-son buyrug‘iga asosan berilgan 68-481 raqamli nashr ruxsatnomasi) keng yoritildi. Ulardagi taklif va xulosalar talabalarning dunyoqarashini, siyosiy ongini, siyosiy madaniyatini yuksalishida katta yordam berdi.

Insoniyat tarixida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar rivojini davrlashtirish muammolariga e’tibor qaratilib, geosiyosiy omillar asosida Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar rivojida Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davri; Ahamoniylar davri; Ellinizm davri; Xalifalik davri; Mo‘g‘ullar davri; Temuriylar davri; Xonliklar davri; Chor Rossiyasi va sovet davri; Belovej shartnomasi davri (1991-yil), ularning o‘ziga xos xususiyatlari asoslandi. Oliy ta’lim muaassasalari o‘quv jarayonida talabalarning ma’naviy-ma’rifiy bilimlarini oshirish hamda kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga doir bu tahlillar takliflari “60112100-Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishining malaka talabi mazmuniga, darslik va qo‘llanmalariga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlar markazi 2025-yil 3-apreldagi 02/01-01-111- sonli ma’lumotnoma).

Xalqaro munosabatlar rivojini tahlil qilishda geosiyosiy aktorlar va funksional yondashuvlarning roli, ilmiy ahamiyati yoritildi. Xalqaro maydonda shovinistik kayfiyat, mustamlakachilikning yangicha shakldagi ko‘rinishlariga ega bo‘lish hissi saqlanib qolar ekan turli mazmundagi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy birlashmalarga ko‘r-ko‘rona ergashmaslik lozim, turli mazmundagi iqtisodiy, texnologik ko‘mak, ilmiy-texnik hamkorlikka asoslangan dasturlarda ongli ishtirok etishni zamon talab qilmoqda. Ushbu jarayonlarni chuqur ilmiy, funksional tahlil qilish, unga qanday munosabatda bo‘lish, zaruriyat bo‘lsa bu jarayonlarga shubha bilan qarash, ehtiyotkorlik singari ko‘nikmalarni tarbiyalovchi skeptitsistik funksiya yangicha yondashuv usuli sifatida asoslandi (O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 4-iyundagi 11-05-3678/04-son dalolatnomasi). Bu taklif va xulosalar bo‘lg‘usi pedagog-targ‘ibotchilarda g‘oyaviy immunitetni tarbiyalashda, xalqaro maydondagi voqelikka ongli, ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishlarida muhim ahamiyat kasb etdi;

Xalqaro maydonda sodir etilayotgan turli ijtimoiy-siyosiy voqeliklarning yuz berishida tabiiy-geografik, siyosiy, iqtisodiy, geografik, diniy omillar bilan bir qatorda geosiyosiy bilimlar va konsepsiyalar ham alohida bir muhim omil ekanligi asoslandi. Ushbu konsepsiyalar misolida Markaziy Osiyo hududida vujudga kelgan dastlabki geosiyosiy jarayonlar mintaqamizning qator geosiyosiy omillaridan kelib chiqqan holda tahlil qilindi. Mintaqadagi geosiyosiy jarayonlar rivojida “Katta o‘yin” kontsepsiyasi, uning xalqaro munosabatlarga qilgan ta’siri o‘rganildi, uning xronologik davri 1907-yilgi ingliz-rus bitimi emas, ikkinchi jahon urushidan keyin Hindistonning bo‘linib ketishi davrigacha davom etganligi dalillandi (“O‘zbekiston” teleradiokanali davlat unitar korxonasi 2025-yil 4-apreldagi 01-30/210-sonli ma’lumotnomasi). Natijada O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha dolzarb muammolarni ishlab chiqish, shuningdek, buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo‘lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan o‘zbek xalqining

tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga, aqidaparastlikka yo'l qo'ymaslik borasidagi vazifalarni muvofiqlashtirishga xizmat qildi.

Tadqiqotlarda xalqaro maydonda vujudga kelgan zamonaviy xalqaro tartibotda muhim ahamiyat kasb etuvchi aktorlar haqida gap borganida "Yangi katta o'yin" konsepsiyasi va uning Markaziy Osiyodagi, Yaqin Sharqdagi namoyon bo'lish holatlariga urg'u beriladi. Lekin bu konsepsiya Shimoliy Afrika va Sharqiy Yevropadagi geosiyosiy jarayonlar rivojiga katta ta'sir qilayotgani ko'rsatib berildi. Shunday sharoitda O'zbekiston tomonidan olib borilayotgan amaliy ruhdagi ahil qo'shnichilikka asoslangan tashqi siyosat, uning mohiyati tahlil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning nutqlarida, murojaalarida, Farmonlaridagi yangi mingyillikda insoniyatni kutayotgan keng qamrovli global muammolarni ilgari surilishi, ijtimoiy hamkorlik global tahdidlarga qarshi kurashning muhim omili ekani, ularni bartaraf etish borasida belgilangan vazifalarni ilmiy tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda faqatgina O'zbekiston manfaatlari ilgari surilmaganligi, balki umuminsoniy xarakterda ekani ko'rsatib o'tildi. (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali 2025-yil 2-fevraldagi № 79-sonli ma'lumotnoma).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 13 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 9 ta respublika ilmiy-amaliy 4 ta xalqaro anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 2 ta monografiya, tarix fakulteti talabalari uchun bitta darslik, beshta o'quv qo'llanma, 10 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 32 ta maqola, 26 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, 12 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI.

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmeti, ilmiy yangiligi, respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqot davomida olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi va tarkibiy tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Xalqaro munosabatlar tizimida geosiyosat va geosiyosiy omillar tahlilining nazariy-gnoseologik asoslari" deb nomlangan unda dastlab tarixiy jarayonlar rivojida geosiyosiy omillarning roli masalasi ko'rib chiqilgan.

Insoniyat ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining uzoq tarixiga e'tibor qiladigan bo'lsak dastlabki vujudga kelgan eng qadimgi sivilizatsiyalar, saltanatlar, davlatchilik an'analari tabiati, iqlimi, geografiyasi nihoyatda qulay bo'lgan makonlarda vujudga kelgan. Dastlabki davrlardagi insoniyat erishgan ishlab chiqarish kuchlarining, bilimlarning rivoji, erishgan yutuqlari shuni taqozo etgan. Biz yashayotgan onatbiat, muhit insoniyat erishgan ilm-fan, texnika yutuqlarining mahsuli emas, aksincha bugungi insoniyat erishgan jamiki yutuqlar onatbiat bag'rida yuz berganligi hususidagi fikrga hech kim e'tiroz bildirmasa kerak. Insoniyat o'zlashtiruvchi ho'jalik yuritish shaklidan ishlab chiqaruvchi ho'jalik yuritish shakliga o'ta boshlaganidan beri o'ziga qulay hudud, qulay iqlim, unumdor yerlar, yaylovlar, suv manbalari izlaydi.

Qayd etib o'tilgan omillarni ko'proq qo'lga kiritishda makon omilidan kengroq foydalanish sabab saltanatlar vujudga keldi. Dastlabki ilm-fan sohaları sifatida geografiya, matematika, geometriya, arxitektura, astronomiya, fizika, tarix singari bilimlar tizimi shakllanib bordi. Albatta bu fanlar qatorida "politologiya", "geosiyosat" singari fanlar bo'lmasada bu fanlar negizidagi geosiyosiy omillar dastlabki ijtimoiy –siyosiy, iqtisodiy munosabatlar tizimida yetakchi omil sifatida insonlarni harakatga undagan.

Geosiyosiy jarayonlarning insoniyat tarixida tutgan o'rni, u tahlil etishi lozim bo'lgan ob'ekt, uning tadqiqot doirasi, hal etishi lozim bo'lgan muammolar ko'lami xususida uzoq yillar davomida izlanishlar olib borilgan bo'lsada bugungacha uning shaklu-shamoyiliga, tadqiqot doirasiga, obyektiga aniq bir ta'rif berish imkoni bo'lmadi. Bunday holat quyidagicha asoslangan: bir tomondan yangidan shakllangan har bir tadqiqot obyekti uchun o'ziga xos xususiyat bo'lsa, ikkinchi tomondan geosiyosiy jarayonlarning naqadar murakkabligi va dinamik xarakterda ekanligidir.

Insoniyat tarixini tahlil qilishda barcha ijtimoiy-siyosiy fanlar singari geosiyosiy jarayonlarning ham o'ziga xos kategoriyalari, metodlari va qonuniyatlari mavjud. Tadqiqotchilar tarixiy taraqqiyotda geosiyosiy omilarning roli haqida gap borganida geosiyosatning asosiy qonuniyatlariga katta e'tibor qaratishadi. Jamiyatning tarixiy taraqqiyotida, uning xalqaro munosabatlarining takomillashib borishida muhim o'rin tutadigan qonuniyatlardan birinchisi geografik determinizm qonuni hisoblanadi.

Olamning o'ziga xos fundamental xususiyatlaridan biri uning nihoyatda go'zalligi va rang-barangligidir. Davlatlar, siyosiy tizimlar qanchalik ko'p bo'lmasin dunyoda aynan bir xil bo'lmish ikkita davlatni topib bo'lmaydi. O'z navbatida savol paydo bo'ladiki bu rang-baranglikning sababi nimada? Davlatlarning tarixiy taraqqiyotida, boshqaruv shaklida, siyosiy rejimlarida, siyosiy tartibotida tabiiy, geografik omillarning qay darajada ta'siri bo'ladi? Agar bu savolga ilmiy tilda qisqacha aytadigan bo'lsak bu voqelikni "geografik determinizm" deyishimiz mumkin. Bu tushuncha ostidagi mohiyat shuni anglatadiki, geosiyosiy tadqiqotlarda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning yuksalib borishi ob'ektiv tabiiy-geografik makon bilan uzviylikda tahlil qilinadi.

Insoniyat tarixida geosiyosiy jarayonlarning rivojini ta'min etuvchi qonuniyatlardan ikkinchisi geosiyosiy dualizm hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlab

ketish lozimki ushbu qonun ba'zi manbalarda fundamental dualizm¹¹ sifatida olib qaraladi. Bu qonuniyatga tarixiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch, geosiyosiy jarayonlarning asosiy tamoyili, tallasokratiyani tellurokrtiyaga qarama-qarshi qo'yuvchi tamoyil sifatida qaraladi. Odatda ushbu qonun makonning geografik tuzilishi va sivilizatsiyaning tarixiy shakllarida namoyon bo'ladi.

Geosiyosiy omillar mazmun-mohiyatiga ko'ra doimiy va o'zgaruvchan omillarga bo'linadi. Doimiy geografik omillarga davlat yoki mintaqaning hududiy joylashuvi, chegarasining shakli va ko'lami (nisbatan), iqlimi, reliefi, flora va faunasi va shu kabilar kiradi. O'zgaruvchan geografik omillar esa mintaqa yoki davlatning aholisi, foydali qazilmalari, siyosiy madaniyati va ijtimoiy tuzilishlarini nazarda tutadi. Umuman borliqdagi asosiy geosiyosiy omillar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: hududiy omil; siyosiy omil- davlatning siyosiy tuzilishi, uning o'ziga xos xususiyatlari, davlatdagi ijtimoiy qatlamlar, davlatning chegaralari va shu kabilar; geografik omil- borliqda joylashuv holati, tabiiy resurslari, fauna, flora dunyosi va shu kabilar; iqtisodiy omil-aholining turmush darajasi, ishlab chiqaruvchi kuchlar qudrati, savdo-sotiq, bozorning rivojlanganlik darajasi; transport-kommunikativ imkoniyat- davlatning strategik o'rni, temir yo'l, avtomobil yo'llari, daryo-suv transporti; tabiiy iqlim sharoiti; madaniy omil -milliy an'analar, madaniy qadriyatlar, fan va ta'lim taraqqiyoti darajasi; demografik omil- aholi tarkibi, joylashuvi, aholi o'sish darajasi; harbiy omil-qurolli kuchlarining qudrati va harbiy tayyorgarligi, harbiy mutaxassislarni tayyorlash darajasi; ekologik omil aholining davlatlar va mintaqalar tabiiy resurslarining chegaralanganligiga munosabati, xom-ashyo zahiralarining kamayishi va shu kabilar. Lekin tadqiqot davomida shunisi isbotlab berildiki geosiyosiy ta'limotlar, konsepsiyalar ham alohida geosiyosiy omil sifatida o'rganildi, asoslab berildi.

Bobda galdagi masala sifatida xalqaro munosabatlar tarixi rivojini tahlil qilishga qaratilgan geosiyosiy aktorlar va yondashuvlarning ilmiy ahamiyati tahlil etildi.

Geosiyosiy aktorlar haqida gap ketar ekan avvalombor aktor so'zining etimologik ma'nosiga e'tibor qaratiladi. Negaki bu hodisaning tahlili, uni o'rganish jarayonlarida kelib chiqishi mumkin bo'lgan anglashmovchiliklarni oldini olishga yordam beradi. Mazkur so'z yunon, lotin, ingliz tillaridagi siyosiy, tarixiy manbalarda ko'p uchraydi. Rus, o'zbek tillaridagi manbalarda uchramaydi. Lekin shuni qayd etish kerakki bu atamaning mohiyati turli mazmunlarda yoritib kelinadi. Aktor so'zi qadimgi yunon mifologiyalarida, EHM dasturlarida, siyosiy sotsiologiyada, shuningdek politologiya fanlarida ham uchraydi. Siyosiy-tarixiy adabiyotlarda xalqaro siyosiy jarayonlarning ishtirokchisi, unda yuz berayotgan turli voqealarning, hatti-harakatlarning vujudga kelishiga muhim ta'sir etuvchi, turtki beruvchi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy va shu kabi ko'rinishlardagi muhim omillar nazarda tutiladi. Davlatning ichki va tashqi maydonda faoliyat yuritishini, ma'lum bir manfaatlarini himoya qiluvchi, xalqaro jarayonlarning rivojiga yuksak darajada ta'sir etuvchi hodisa siyosiy aktor hisoblanadi. Bugungi ingliz tilida keng qo'llaniladigan aktor atamasini o'zbek tiliga tarjima qilib bo'lmaydi. Yaqinroq

¹¹ Желтов В.В., Желтов М.В. Геополитика: история и теория. -М.: -2009. С. 31.

ravishda san'at sohasida aktyor atamasi ishlatiladi. Lekin falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fanlarda bunday atama uchramaydi. Shunday ekan atamani o'z holida ishlatish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Insoniyatning uzoq tarixida jamiyat hayotining turli sohalarida, turli mintaqalarida bir qator turli ko'rinishlardagi geosiyosiy aktorlar muhim faoliyat yuritib kelgan va ayni damda ular o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritmoqda. Geosiyosiy aktorlarni ularning mazmun-mohiyatidan, namoyon bo'lish shakllariga qarab quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin: hududiy aktorlar; klassik siyosiy aktorlar; yangi geosiyosiy aktorlar; inson omili.

Geosiyosiy jarayonlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etuvchi yondashuvlardan tizimli yondashuv uslubi, qiyosiy uslub, tarixiy uslub, faoliyatli (harakatiy) uslub, funksional uslub, bixevioristik uslub, institutsional uslublari tahlil etildi.

Geosiyosiy jarayonlarning tahliliga qaratilgan asosiy funksiyalar odatda ushbu ketma-ketlikda tahlil etiladi: gnoseologik funksiya; prognoz qilish funksiyasi; boshqaruv funksiyasi; mafkuraviy funksiya. Ushbu jarayonlarni chuqur ilmiy tahlil qilish, unga qanday munosabatda bo'lish zarur, zaruriyat bo'lsa bu jarayonlarga shubha bilan qarash, ehtiyotkorlik bilan munosabat bildirish singari ko'nikmalarni skeptitsizm funksiyasi o'zida ifoda etadi. Ushbu sabab qator yirik davlatlarning yirik geosiyosatchilari o'z tadqiqotlarida bunday funksiyaga ehtiyoj sezishmagan.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi "Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar takomilida geosiyosiy omillar o'rni masalasining tarixiy negizlari" deb nomlanib dastlab unda Markaziy Osiyo hududida vujudga kelgan dastlabki geosiyosiy jarayonlar va ularning xususiyatlari tahlil etilgan.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha dastlabki davlat birlashmalari bo'lmish Xorazm va Baqtriya aholisining asosiy mashg'uloti o'sha vaqtda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik edi. Agar ushbu davlatlarning joylashgan o'rniga e'tibor beradigan bo'lsak barchasida geografik omillar birlamchi asos talab etgan: dastlabki manzilgohlarning daryo bo'ylarida, jilg'alar bo'ylab, tog'oldi vohalarida joylashgani, kundalik hayotida jamoa bo'lib yashash, qo'ni-qo'shnichilik, hashar va shu kabi an'analar hukm surgan.

Xalqaro munosabatlar takomilida miloddan avvalgi II asrdan milodiy XVI asrga qadar Sharq bilan G'arb xalqlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida Markaziy Osiyo hududi bo'ylab o'tgan Buyuk Ipak yo'li muhim o'rin tutgan. Sariq dengiz sohillaridan boshlanib Markaziy Osiyo, Eron, Mesopotamiya, Old Osiyo orqali o'tib O'rta yer dengizi sohillariga qadar davom etgan. Sian, Dunxuan, Yorkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv, Tabriz, Damashq kabi bir qator shaharlarni o'zaro bog'lagan. Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb xalqlari o'rtasidagi munosabatlarning rivojida, keng miqyosdagi madaniy aloqalari va savdo yuksalishida muhim ahamiyat kasb etgan.

O'zbekistonda qadimgi maxalliy davlatchilik tarixi Qang', Dovon, Xorazm davlatlari rivoji bilan uzviy bog'langan. Qang' davlati miloddan avvalgi III asrning boshlarida paydo bo'ldi. Uning dastlabki davrlardagi xududlari Toshkent voxasidan

iborat bo'lgan. Qang' davlatining tashkil topishi asosiy sabablaridan biri tashqi harbiy xujumlardan himoyalaniş zaruriyati bo'lgan.

Qang' davlati aholisi tarkibini asosan dehqonlar va chorvadorlar tashkil etadi. O'troq aholi shaharlarda va vodiylarda yashab, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo bilan mashg'ul bo'lgan. Dasht tumanlarida esa chorvachilik rivojlangan. Miloddan avvalgi II asrda qang' qabilalari eng qudratli davlat birlashmasiga aylandi, uning hukmdorlari o'z nomlaridan tangalar zarb qildiradi. Qang' davlatining iqtisodiy taraqqiyotiga Buyuk Ipak yo'lining davlat hududlaridan o'tgan shimoliy tarmog'i katta ta'sir o'tkazdi.

Miloddan avvalgi IV-II asrlarda Qadimgi Xorazm mustaqil davlat bo'lib, Makedoniyalik Aleksandr, Salavkiylar, Yunon-Baqtriya davlatlari tarkibiga kirmagan. Kirmasligining sabablaridan yana biri u Qizilqum va Qoraqum sahrolari o'rtasida joylashganligi bo'lib unga harbiy yurish qilishning murakkabligi bilan belgilanadi. Bunday siyosiy qulaylik Xorazmda o'ziga xos mahalliy davlatchilik tizimiga ega bo'lgan davlatning shakllanishida muhim omil bo'ldi.

VIII asr oxiri IX asr boshlarida qulay ijtimoiy-siyosiy, tarixiy shart-sharoitlar sabab Arab xalifaligining qator shaharlarida ilm-fan, madaniyat yuksalib, madaniy aloqalar avj oldi. Qadimgi Yunonistonning Arastu, Aflotun, Gippokrat, Suqrot, Arximed, Yevklid kabi mashhur olimlarning merosi keng o'rganildi.

Markaziy Osiyo Yevrosiyoning ham hududi, ham tabiiy zahiralari, iqtisodiyoti va aholisi bilan muhim ahamiyat kasb etuvchi hududiy tuzilmalarini tutashtiruvchi mintaqa sifatida muhimdir. Bu mintaqalar haqida gap borganida quyidagi hududlar nazarda tutiladi: Birinchidan, Yaqin Sharq, Fors ko'rfazi va Janubiy Kavkaz. Bu hududiy tuzilma bir tomondan Yevropa, Shimoliy Afrika, ikkinchi tomondan Markaziy Osiyo hududi orqali Xitoy, Hind hududlarini bog'lab turgan. Ikkinchidan, Afg'oniston va Janubiy Osiyoni o'z ichiga olgan Hindiston subkontinenti. Uchinchidan, Xitoy. Markaziy Osiyoning sharqida joylashgan Xitoy faqatgina bizning shunchaki qo'shnimiz emas, balki bu davlatning g'arbiy o'lkalari Markaziy Osiyoning tarkibiy qismi hisoblanadi. To'rtinchisi, Rossiya. Ushbu mintaqalar tutashuvida hududimiz muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Navbatdagi masala sifatida antik geosiyosiy bilimlar va ularning xalqaro munosabatlar takomilida tutgan o'rni tahlil etilgan. Insoniyat tarixining dastlabki davrlarida kishilik jamoalari yer yuzasining o'zlari uchun har tomonlama qulay joylarini tanlashgan, shu joylarda istiqomat qilishgan. Geosiyosiy jarayonlar, ta'limotlar quruq bo'shliqda yuzaga kelmadi, yoki bo'lmasa bironta ijtimoiy buyurtma sabab paydo bo'lgani yo'q. Dastlabki davlatchilik an'analari shakllangan paytlardan oq jamoaning turli ko'rinishdagi hatti-harakatlari sabab yuz beradigan jarayonlarni tahlil etish, o'rganish, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish, ularni amalga oshirish yuksak mas'uliyat kasb etib kelgan. Biron bir qabul etilgan siyosiy qaror, uning jamiyati rivojiga ko'rsatadigan ta'sirini, oqibatlarini mamlakatning geografik holati bilan qay darajada bog'liq ekanini anglab yetishga keng e'tibor qaratildi. Shunday ekan mutafakkirlar geosiyosiy jarayonlarga oid siyosiy nazariyalarni ishlab chiqishda siyosiy normalar va makon o'zaro bog'liqligini, o'zaro ta'sirini doimo nazarda tutishgan.

Qadimgi Misr, Mesopotamiya va Hindistondagi kabi Xitoyda ham ilk sivilizatsiyalar Xuanxe va Yanszi daryolari bo'yida miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda vujudga kela boshladi. Qadimgi Xitoy davlati Xuanxe (Sariq daryo) daryosining o'rta oqimida vujudga keldi.

Miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashagan Qadimgi Xitoy mutafakkiri Lao Szining "Dao de Szin" (Faoliyat va qudrat haqida kitob) asari¹² sof geosiyosiy asar hisoblanmasada unda katta kichik podsholiklar haqida gap borganida davlatchilik nazariyasidagi gidravlik nazariyani – davlat va jamiyat rivojida daryolarning roli masalasiga to'xtaladi. Yangi hududlarni egallashda kelishuvlarning, ittifoqchilikning, koalitsiyalarning ahamiyatiga keng e'tibor qaratadi. Lao-Szining shogirdi Konfutsiy o'zining ahloqiy ta'limoti bilan mashhur bo'lsada, bu ta'limotda ba'zan geosiyosiy jihatlari uchrab turadi. Mamlakatning qudratini belgilashda yuksak ahloqiy normalarning ahamiyatiga katta e'tibor qaratadi¹³.

Qadimgi Hind mutafakkiri braxman Kautilya tomonidan "Artxashastra" (Siyosat kitobi) asari yaratiladi. Bu asarda juda puxta o'ylangan, hayotiy sinovlardan o'tgan qoidalarga keng e'tibor qaratiladi: bosib olingan yoki bo'sh yotgan hududlarga aholini jalb etish, joylashtirish, aholi punktlari tashkil etish qoidalari, aholi toifalariga yer uchastkalari ajratish, yangi ko'chib o'tganlarga imtiyozlar berish, soliqlardan ozod etish¹⁴ va shu kabilar. Kautilya tomonidan ilgari surilgan bu chora-tadbirlar tizimini AQShda 1862-yil mayda prezident A.Linkoln imzolagan "Gomsted-akt" to'g'risidagi federal Qonunda ham ko'rish mumkin.

Milodgacha bo'lgan birinchi asrda yashab o'tgan Strabon o'zining mashhur "Geografiya" asarida yer yuzasini quruqlik va uni o'rab turuvchi dengizlarga ajratadi, quruqlikni o'z navbatida Shimoliy va Janubiy yarim sharga bo'ladi. Shuningdek beshta iqlim mintaqalariga ajratadi, ularni yashash uchun qulay va noqulay jihatlarni keng tahlil qiladi. Yunon tarixchisi, strateg Polibiy o'z asarlarida Rimning kuchayishi sabablarini, uning harbiy qudratini Italiyaning joylashgan qulay o'rni, iqlimi, unumdor yerlari kabi omillardan izlaydi. Shuningdek Polibiy Rimning boshqaruv tizimiga alohida e'tibor qaratadi: konsullar monarxiyaga asoslangan, senatorlar aristokratik, xalq yig'ini esa demokratik qadriyatlarga asoslangan hokimiyatga ega¹⁵. Shu tariqa Rimning har bir fuqarosi davlat boshqaruvida faol ishtirok etish imkoniga ega.

Shuningdek, dastlabki geosiyosiy omillar tahlilini Aristotel asarlarida ko'rish mumkin: davlat boshqaruvi tuzilishi bilan davlatning joylashgan geografik o'rni o'rtasidagi bog'liqlik; mamlakat aholisining miqdori bilan aholining sifati o'rtasidagi bog'liqlik; davlat maydoni bilan davlatning harbiy qudrati o'rtasidagi bog'liqlik masalalari keng tahlil etilgan. Aristotelning fikricha kuchli, farovon davlat uni o'rab olgan tashqi omillarsiz, tashqi muhitsiz vujudga kelishi mumkin emas¹⁶. Aynan klassik geosiyosat vakillari tomonidan Aristotelning bu qarashi "rivojlanish joyi"

¹² Философия Древнего Китая: мудрецы Поднебесной. [https://www. epochtimes. com.ua/ru/china/culture/fylosofya-drevnego-kytaja-mudrec-podnebesnoj-94589.html](https://www.epochtimes.com.ua/ru/china/culture/fylosofya-drevnego-kytaja-mudrec-podnebesnoj-94589.html)

¹³ Мудрецы поднебесной: Сборник. - Симферополь, 1998. С. 90.

¹⁴ Артхашастра, или Наука политики. - М., 1993. С. 52.

¹⁵ Полибий. Всеобщая история.- СПб., 1994. Т. II. С. 8.

¹⁶ Аристотель. Соч.: В 4 т. Т. 4. С. 596.

atamasi kategoriyasi bilan rivojlantirildi. Tahlillar davomida ko‘rinib turibdiki klassik geosiyosat vakillari ilgari surgan geografik omillar masalasining dastlabki elementlari antik dunyo vakillari tadqiqotlarida keng uchraydi.

Markaziy Osiyo qadimdan turli xalqaro aloqalar tizimida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ma’lumki “Markaziy Osiyo” atamasi ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarga nemis geografi Aleksandr Gumboldt tomonidan 1843-yilda kiritilgan edi. Tadqiqotchi “Markaziy Osiyo: tog‘ tizmalarini tadqiq qilish va iqlimlarni taqqoslash” asarida Markaziy Osiyoni joylashgan o‘rni, iqlimi, qator tabiiy-geografik hususiyatlariga ko‘ra alohida, o‘ziga xos mintaqa sifatida o‘rganadi.

Uzoq yillar davomida “Markaziy Osiyo” tushunchasi geosiyosiy tushuncha sifatida emas, balki tarixiy, geografik atama sifatida qo‘llanilib kelingan. Mintaqaning chegaralari, tarkibi aniq ko‘rsatib berilmadi. Xatto uning nomlanishi ham turli davrlarda, turli manbalarda, turli xalqlarda turlicha talqin etib kelindi. Bunday nomlanishda tarixiy omillar asosiy rolni o‘ynab keldi. Yunonlar va rimliklar bu o‘lkani “Transaksoniya” – Oks daryosi ortidagi yerlar, hududlar deb, xitoyliklar “G‘arbiy o‘lka” deb, arablar – “Movarounnahr” yoki bo‘lmasa daryoning narigi tomoni deb atab kelishgan. Mintaqa etnolingvistik asosda “Turkiston” deb ham ataladi¹⁷. Arnold Toynbi o‘zining mashhur “Tarixni anglash” asarida Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i o‘zining strategik o‘rni, tabiiy imkoniyatlari bilan Yaqin Sharq kabi yer yuzidagi barcha muhim yo‘llar tutashgan joyga, strategik yo‘llar tutashdigan chorrahaga aylanishiga imkoniyat yaratganini qayd etib o‘tadi¹⁸.

Markaziy Osiyoning eng qadimiy tarixi bilan bog‘liq manbalar haqida gap borganida Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, A.Firdavsiy, Z.M.Bobur, M.Qoshg‘ariy, Strabon, Kursiy Ruf, Gerodot asarlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda xalqaro munosabatlar tarixida kechayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va shu kabi turli mazmundagi voqeliklar tahlilida geosiyosiy jarayonlarni davrlashtirish masalasiga ham alohida e‘tibor qaratiladi. Geografik determinizmdan farqli tarixiy determinizm jamiyat taraqqiyotini ta‘min etishdagi tarixiy tajribaga, boshqaruv shakllariga, siyosiy, iqtisodiy, madaniy omillarga, tashqi aloqalar roliga alohida e‘tibor qaratiladi. Bu jarayonda turli saltanatlar, davlatchilik uyushmalar, sivilizatsiyalar, diniy uyushmalar, tashkilotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kuchlarning, markazlarning joylashgan o‘rni, ijtimoiy tarixiy taraqqiyotdagi mavqei, ta‘siri, olib borgan ichki va tashqi siyosati, qator makonlar ustidan o‘z nazoratini joriy etish uchun olib borgan harbiy harakatlari, joriy qilgan tartiboti keskin o‘zgarib turishi tarixda ko‘p kuzatiladi. Bir kuch markazining tarix sahnasidan ketib ikkinchi bir kuch markazining maydonga chiqishi sabab ro‘y beradigan manzaralarga nisbatan xalqaro munosabatlar tizimida geosiyosiy davr atamasi qo‘laniladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki geosiyosiy davrlarni quyidagicha davrlashtirilishining guvohi bo‘lish mumkin. Dastlab klassik geosiyosatning vakillaridan biri Makkinder insoniyat tarixida, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tizimida muhim bir ahamiyat kasb etgan geosiyosiy jarayonlar rivojini davrlashtirishga

¹⁷ Сафаев С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. -Т.: 2005. 11-б

¹⁸ Тойнби А. Постигание истории. – Москва: издательство “Прогресс”, 1991.- С 556-557.

harakat qiladi. X.Makkinder "Tarixning geografik o'zagi" (1904) asarida dunyoning butun geosiyosiy tarixini uchta asosiy davrga ajratgan¹⁹: Kolumbgacha bo'lgan davr; Kolumb davri; Kolumbdan keyingi davr. Qator geosiyosiy tadqiqotlarda geosiyosiy davrlarni beshtaga bo'lib tahlil qilish keng tarqalgan²⁰. Unga asosan: Vestfaliya geosiyosiy davri (1648-1799), Vena geosiyosiy davri (1815-1914), Versal-Vashington tizimi (1919-1939), Potsdam geosiyosiy davri, Belovej shartnomasi (1991-yildan). Har bir geosiyosiy davrda kuchlar balansidagi keskin o'zgarishlar, tarixiy jarayonlarni beqarorlashuvi, davlatlarning siyosiy-harbiy guruhlariga bo'linib ketishi yuz bergan. Rus tadqiqotchisi A.V.Kostrov esa geosiyosiy davrlarni uchga bo'lib tahlil etishni taklif qiladi: Vestfaliya geosiyosiy davri, Vena geosiyosiy davri, Potsdam geosiyosiy davri²¹. Uning fikricha Versal-Vashington tizimi, Belovej shartnomasidan keyingi davr alohida bir geosiyosiy davr hisoblanmaydi.

Rossiyalik tadqiqotchilarning aksariyati asarlarida geosiyosiy jarayonlarni davrlashtirishda asosan yevropalik tadqiqotchilarning xulosalariga yaqin fikrlarni uchratish mumkin. Bunday tahlillarni N.A. Nartov, A.B.Isayev va boshqalarning tadqiqotlarida kuzatish mumkin²². Ulardan farqli ravishda V.V.Jeltov va M.V. Jeltovlar geosiyosiy jarayonlarni davrlashtirishni milliy davlatchilik doirasida tahlil qilishadi. Shuningdek ular tarixiy taraqqiyotdagi geosiyosiy jarayonlarning xususiyatlarini tahlil etishda makon omiliga, mamlakatning joylashgan o'rniga, hududiy qo'shni jamolar omiliga ham alohida e'tibor qaratishadi.

Markaziy Osiyodagi milliy davlatchilik rivoji bosib o'tgan yo'lni geosiyosiy nuqtai nazardan davrlashtirish ilmiy tadqiqotlarda uchramaydi. Lekin tadqiqot davomida sal kam uch ming yillik tarixga murojot qilgan bo'lsak quyidagi muhim davrlar ajratib ko'rsatildi: Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davri; Ahamoniylar davri; Ellinizm davri; Halifalik davri; Mo'g'ullar davri; Temuriylar davri; Xonliklar davri; Chor Rossiyasi va sovet davri; Belovej shartnomasi davri (1991-yil). Tadqiqotda bu davrlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etildi.

Tadqiqotning "Markaziy Osiyoda yangi davr tartiboti yo'nalishlarini belgilashda geosiyosiy omillar roli" deb nomlangan uchinchi bobida Xalqaro munosabatlar tarixida klassik geosiyosat vakillarining asosiy g'oyalari va tamoyillariga alohida e'tibor qaratilgan.

Fan va texnikaning gurkirab rivoji, sanoatning yuksalishi, tashqi savdning kuchayishi, dengiz kashfiyotlari, transport – kommunikativ harakatlarning kuchayishi xalqaro maydondagi vaziyatni keskin o'zgartirib yubordi. Yangi davrda davlatlarning joylashishi, hududi, qirg'oqbo'yi chegaralarining uzunligi, davlatda kommunikatsiya imkoniyatlari, landshaft, iqlimi va qator demografik omillar xalqlar ijtimoiy-siyosiy hayotiga nechog'li ta'siri kattaligi muhim ahamiyat kasb etdi. Yer kurrasining qayd etib o'tilgan tabiiy, geografik, fizik, logistik imkoniyatlari xalqaro maydonda yetakchilik uchun kurashayotgan davlatlar uchun hayot-mamot masalasi ekani sabab keng tadqiqotlar domiga tortildi. Shunday ruhdagi tadqiqotlar samarasi o'laroq, XIX

¹⁹ Жуманиёзов Х.С. Геосиёсат асослари. ўқув қўлланма. - Т.: 2021. 46-б

²⁰ Костров А.В. Геополитика: учеб.-метод. пособие / А.В.Костров. – Иркутск: изд-во ИГУ. 2015.- С 49.

²¹ Костров А.В. Геополитика: учеб.-метод. пособие / А.В.Костров. – Иркутск: изд-во ИГУ. 2015. С 48-49.

²² Каранг: Нартов, Николай Александрович. Геополитика. - М.: ЮНИТИ-ДАНА: Единство, 2007.- С 27. Исаев Б.А. Геополитика: Учебное пособие. — СПб.: Питер, 2006. - С 49-50

asr oxiri – XX asr boshlariga kelib keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy fanlar doirasida alohida ahamiyat kasb etuvchi geosiyosiy tadqiqotlar maydonga chiqdi. Tadqiqotda ta’kidlanishicha klassik geosiyosat vakillari deyilganida ana shu davrdan boshlab ijod qilgan tadqiqotchilar qarashlari nazarda tutiladi. Jumladan, nemis olimi F.Ratsel, shved davlatshunosi R.Chellen, amerikalik admiral A.Mexen, ingliz geograf nazariyotchisi X.Makkinder, nemis olimi K.Xausxofer, amerikalik N.Spikmen va rus iqtisodchi olimi P.N.Savitskiylar eng mashhur klassik geosiyosatshunoslar hisoblanishadi.

Ular tomonidan bugungi geosiyosatda ham nazariy, ham amaliy jihatdan o’ziga xos munozaralarga sabab bo’layotgan qator konsepsiyalar va nazariy kategoriyalarni o’z vaqtida o’rtaga tashlaganlar: yer kurrasining tabiiy, geografik, fizik, logistik imkoniyatlarini qo’lga kiritish, ular ustidan nazorat o’rnatish usul va vositalari tahlili; quruqlik va dengiz “hukmdor”lari o’rtasida doimiy qarama-qarshilik bo’lishi g’oyasi; “Buyuk quruqlik” nazariyasi; insoniyat tarixiga daxldor makonlarga ega bo’lgan markaz – xearthland muammosi; jahon siyosatida strategik ahamiyatga ega bo’lgan yo’nalish – rimland masalasi; yetakchi xorijiy davlatlarning geosiyosiy ittifoqchiligini nazariy asoslash; davlatlarning strategik xom-ashyo resurslariga egaligi, uning davlat, mintaqa va global geosiyosiy munosabatlardagi o’rni, hududning joylashuvi, iqlimi, logistik imkoniyatlari; aholi miqdori, uning g’oyaviy birligi, fan va madaniyatning rivojlanish darajasi va boshqalar.

Klassik geosiyosatning yirik vakili bo’lmish Fridrix Ratselning ta’kidlashicha, davlatlar muayyan hududlar ko’rinishidagi zaminda aks etadi. Zamin abadiy bo’lishi mumkin, davlatlar o’zgarib turadi. “Davlatlar misoli tirik organizm” bo’lib ularning o’zagi "zaminiiy asos"da bir-biri bilan tutashadi. O’z davrida F.Ratsel davlatlarning makoniy jihatdan o’sishining yettita tamoyilini ishlab chiqqan. R.Chellen o’z qarashlarida davlatning qudratini unda mavjud bo’lgan beshta jihat bilan bog’laydi. Bular: davlatning geografik makon sifatidagi mavqei; davlatning muayyan xalq sifatida mavjudligi; davlatning o’ziga xos xo’jalikka egaligi, uning rivoji; davlatning yagona ijtimoiy jamiyat sifatidagi voqeligi; davlatning boshqaruv shakli. Shuningdek Chellen siyosiy fanlarinng muhim bo’limlari sifatida geosiyosat, ekosiyosat; demosiyosat; kratosiyosat masalalarini ham keng yoritadi²³. Galdagi klassik geosiyosat vakili A.Mexen “Dengiz kuchlarining tarixga ta’siri (1660-1783)” nomli asarida sivilizatsiya tarixida dengiz omilining katta ekanligiga urg’u beradi.

Xelford Makkinder geosiyosiy bilimlar rivojida muhim ahamiyat kasb etgan Hearland – “Xartlend”, Pivot Area – asosiy o’lka; Outer Crescent – tashqi yarim oy davlatlari; Midland Ocean Area – ichki okean zonasi²⁴ atamalar bilan bog’liq nazariyalarni asoslab berdi. N.Spikmen (1893-1943) geosiyosatga alohida fan sohasi sifatida emas, balki xalqaro siyosiy jarayonlarni tahlil etuvchi, unda o’ziga xos manfaatlarni ifoda etuvchi analitik metod sifatida qaraydi.

1944-yilda nashr etilgan asarida an’anaviy geosiyosiy qarashlardan kelib chiqib, Germaniya va Yaponiyaning urushda yengilish sabablarini ularga kontinental (SSSR va

²³ <http://uchebnik-besplatno.com/uchebnik-geopolitika/chellen.html>

²⁴ Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория. С 157

Xitoy) va dengiz (Angliya va AQSh) kuchlari koalitsiyasining qarshi kurashganliklari bilan bog'laydi²⁵.

N.Spikmen Amerika geosiyosiy harakatlarining asosiy yo'nalishini quyidagi ikki ko'rinish bilan bog'lagan va unga erishish uchun kurashish kerakligini ta'kidlagan: Germaniya va Yaponiyani harbiy kuch sifatida namoyon bo'lib turishini saqlamoq lozim, biroq Yevrosiyoda SSSR-Xitoy ittifoqining shakllanishiga yo'l qo'ymaslik kerak; Yevropaning birlashuviga yo'l bermaslik kerak. Qudratli Yevropa federatsiyasi oxir oqibat AQSh ning dunyodagi pozitsiyasini chegaralash va kuchsizlantirishga olib keladi. Amerikalik tadqiqotchining bashoratlari AQSh tashqi siyosatida bugungacha o'z aksini topmoqda.

Tadqiqot davomida geosiyosiy ta'limotlar tadrijiy taraqqiyotidan kelib chiqib, geosiyosiy konsepsiyalar borasida quyidagi xulosalar ilgari surildi: geosiyosiy konsepsiyalarni tahlil etishda ularni vujudga kelgan tarixiy makon nuqtai-nazaridan, shuningdek ular aks sado bergan zamon nuqtai – nazaridan kelib chiqib tahlil etish, o'rganish o'rinli hisoblanadi; geosiyosiy nazariyalarda tabiiy-geografik omillar katta ahamiyatga ega bo'lib, ular davlatlarning tabiiy iqlimi, geografik joylashuvi, relyefi, hududi, fauna va florasini shuningdek siyosiy tuzumini, iqtisodiy va texnik taraqqiyotini o'ziga qamrab oladi.

Ijtimoiy-siyosiy, tarixiy tadqiqotlarda “Katta o'yin” (“Great game”) atamasi Markaziy Osiyoda ustuvorlikka ega bo'lish maqsadida olib borilgan Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyalari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, harbiy ustunlikka erishish yo'lida olib borilgan siyosiy, harbiy-diplomatik hatti-harakatlarga, geosiyosiy raqobatga nisbatan ishlatiladi²⁶. O'zini “dengiz hukmdori” deb hisoblovchi Buyuk Britaniyaning (Rimlend) quruqlikda tobora qudratga to'layotgan Rossiyaga (Xartlend) qarshi kurashga kirishi qachondir sodir bo'lishi turgan gap edi.

Raqobatchilikning kuchayishiga quyidagilar sabab bo'ldi: Angliya va Rossiyaning Markaziy Osiyo hisobiga yangi mustamlakalarga ega bo'lish yo'lidagi urinishlari; xalqaro maydonda qulay geostrategik mavqega ega bo'lish; o'z mollarini sotish va undan mo'may daromad olish uchun Markaziy Osiyo bozorlarini egallash istagi; Markaziy Osiyoning boy tabiiy xomashyo manbalariga ega bo'lishga intilishlari.

Bu omillar dunyodagi ikki yirik mustamlakachi davlatlar manfaatlarining to'qnashuviga olib keldi. “Katta o'yin” da dunyoning qolgan yetakchi davlatlari nega faol ishtirok etishmadi yoki bo'lmasa ular nega jim turishdi degan savol paydo bo'lishi mumkin. Gap shundaki bu paytda mintaqa faqatgina ingliz mustamlakalari va rus yerlariga tutash bo'lishgani uchun uchinchi ishtirokchini kirib kelishining imkoni yo'q edi.

Tadqiqotda qayd etilishicha “Katta o'yin” boshlanishidagi dastlabki harbiy harakat 1812-yili Aslanduz yaqinidagi Rus-Eron harbiylari o'rtasidagi to'qnashuv bilan boshlandi deyish mumkin. Chunki bu jangda Eron qo'shinlariga ingliz

²⁵ Spykman Nicholas J. The Geography of the Peace. N-Y. 1944

²⁶ Хидояттов Г.А. Британская экспансия в Средней Азии (Пенде, Март 1885 г.)– Т.,1981. – 213. с.

ofitserlari instruktorlik qilishgan. Rossiyaning Eronga qarshi olib borgan harbiy harakatlari “Guliston” va “Turkmanchoy” bitimlarining tuzilishi bilan yakun topdi²⁷.

XVIII asrdan boshlab Rossiya imperiyasining O‘zbek xonliklari bilan bo‘lgan munosabatlarida tazyiq o‘tkazishi ustunlik qila boshladi. Pyotr I davridan Buxoro va Xiva xonliklarini siyosiy jihatdan Rossiyaga teng davlatlar emas deb hisoblab, ularga tazyiq o‘tkaza boshladi. Bunga xonliklardagi ichki siyosiy ahvol ham qulay sharoit yaratib bergan edi. Rus hukumati avvalo elchilik munosabatlari, diplomatik vositalar yo‘li bilan o‘z maqsadini amalga oshirishga kirishadi. Bular sirasiga Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy, kapitan Ivan Buxgols, F.Beneveni, I.K.Kirillov, D.Xoxlov boshchiligidagi elchiliklarni aytish mumkin.

XVII asr boshlariga kelib Hindistonda Britaniyaga tegishli “Ost-Indiya” kompaniyasi dastlab savdo tashkiloti sifatida faoliyat boshlagandi. Asr o‘rtalariga kelib “Ost-Indiya” Buyuk Britaniyaning bosqinchilik siyosatini amalga oshiruvchi instrumentga aylanib ulgurdi. Hindistonda mustahkam o‘rnashib olgan ingliz mustamlakachilari o‘zlari tuzgan Ost-Indiya (Sharqiy Hindiston) kompaniyasi vositachiligida Markaziy Osiyo tomon siljishga urindilar. Negaki Chor Rossiyasining xonliklarni bo‘ysundirishga qaratilgan siyosati Buyuk Britaniyaning shu borada uzoqni ko‘zlagan mustamlakachilik rejalariga jiddiy xavf solar edi.

Ingliz ekspeditsiyalaridan Murkford, Aleksandr Byorns, Stoddart va Konollilar xonliklar o‘rtasida Rossiyaga qarshi ittifoq tuzishga ko‘p harakat qilishadi.

XIX asr oxiriga kelib jahonning yetakchi mustamlakachi davlatlari o‘rtasida dunyoni qayta bosib olish uchun harbiy bloklar tuzilishi boshlandi. 1882-yilda Germaniya imperiyasi, Avstro-Vengriya imperiyasi, Usmoniylar imperiyasi ishtirokida Uchlar Ittifoqi tuzilgan edi. Bu ittifoq birinchi galda Angliya va Rossiyaga qarshi qaratilgan edi. Natijada Rossiya – Angliya munosabatlarida o‘zgarish yuz berdi.

Qator tadqiqotlardagi 1907-yil 31-avgustda Sankt-Peterburgda Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasida imzolangan Markaziy Osiyoda o‘z ta’sir doiralarini belgilab olishga qaratilgan bitim “Katta o‘yin” ga nuqta qo‘yganligi ta’kidlanadi. Lekin bu rasmiy xarakter kasb etgan. Birinchi jahon urushi natijasida barham topgan chor Rossiyasi o‘rnida vujudga kelgan ham sobiq sho‘ro davlati, ham Britaniya Markaziy Osiyodagi istiqloqlilik harakatlarida o‘z manfaatlari doirasida harakat qilishdi. Ikkinchi jahon urushi nihoyasiga yetgach Buyuk Britaniya Hindistondan chiqishdan oldin su’niy ravishda uni bir-biriga dushman bo‘lgan Hindiston va Pokistonga bo‘lib yuboradi. Bu Buyuk Britaniyani mintaqadan butunlay ketishini anglatar edi. Shu voqealarni “Katta o‘yin” konsepsiyasi birinchi bosqichining intihosi deb hisoblash mumkin.

Bobda shuningdek Markaziy Osiyoda milliy hududiy chegaralash va uning ijtimoiy siyosiy jarayonlar rivojiga ta’siri masalasi ko‘rib o‘tiladi. Ma’lumki XX asr boshlariga kelib Turkiston hududi chor Rossiyasining chekka, qoloq hududlaridan biriga aylangan edi. O‘lka hududining katta katta qismi Turkiston general-gubernatorligi tarkibida bo‘lsa, Buxoro amirligi va Xiva xonliklari mustamlakaga aylantirilgan edi.

²⁷ <https://lenta.ru/articles/2014/07/02/greatgame/>

Bolsheviklar hokimiyat tepasiga chiqishgach o'lkada ellik yildan ortiq davom etib kelayotgan mustamlakachilik siyosatini o'zgartirmadi. Bolsheviklar chorizmdan ham reaksiyroq siyosat yurgizishdi. Aksincha sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning ijtimoiy negizi, geografik maydoni avj ola boshladi. Sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan mustamlakachilik va shovinistik siyosat, tub aholining milliy turmush tarzi, diniy, milliy qadriyatlari bilan hisoblashmaslik, tinch aholining qirg'in qilinishi, qizil armiya tomonidan talonchilikning kuchayishi norozilik harakatining kuchayib borishiga olib keldi.

Tarixan tarkib topgan davlatchilik birlashmalarini tugatish, Turkistonni bo'lib tashlash va uning o'rnida milliy belgilariga qarab muxtor (avtonom) respublikalar tuzish masalasi ilgari surildi. Bu g'oya Turkkomissiya raisi Ya.Rudzutak tashabbusi bilan 1920-yil 15-yanvarda qabul qilingan tezislarda aytiladi.

Tadqiqotda keltirilishicha milliy respublikalar tuzish zarurligi g'oyasi tashabbuschilari o'z fikrlarini ijtimoiy hayotda tengsizlik mavjudligi, milliy mojaralar kuchayib borayotgani bilan asosladilar.

Milliy-hududiy chegaralanish masalasi 1924-yil aprelda RKP(b) MQ Siyosiy Byurosida, may oyida RKP(b) MQ O'rta Osiyo Byurosida ko'rib chiqildi. Unda O'rta Osiyo respublikalarida milliy-hududiy chegaralash loyihasini tayyorlovchi maxsus komissiya tuzildi. Loyiha RKP(b) O'rta Osiyo Byurosining 1924-yil 2-iyundagi yig'ilishida muhokama etildi va ma'qullandi.

Shunday qilib, hukmron Markaz sa'y-harakatlari bilan O'rta Osiyoning siyosiy geografiyasi sun'iy ravishda o'zgartirildi. O'rta Osiyo hududidagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Respublikalari o'rnida quyidagi milliy davlat birlashmalari tashkil etildi:

1. O'zbekiston SSR; 2. Turkmaniston SSR; 3. Tojikiston ASSR - O'zbekiston SSR tarkibida (1929-yil 16-oktyabrdan Tojikiston SSR), 4. Qozoqlar yashaydigan tumanlarda RSFSR tarkibidagi Qirg'iz ASSR (1925-yildan RSFSR tarkibidagi Qozog'iston ASSR, 1936-yildan Qozog'iston SSR), 5. Qirg'izlar yashagan hududlar RSFSR tarkibida Qoraqirg'iz muxtor viloyati (1925-yildan Qirg'iz avtonom viloyati, 1926-yildan RSFSR tarkibidagi Qirg'iziston ASSR), Qoraqalpoqlar yashaydigan hududlar Qirg'iz ASSR tarkibida Qoraqalpoq muxtor viloyati (1925-yildan Qozog'iston ASSR tarkibidagi Qoraqalpoq muxtor viloyati, 1932-yildan RSFSR tarkibidagi Qoraqalpoqiston ASSR, 1936-yildan O'zbekiston SSR tarkibidagi Qoraqalpoqiston ASSR muxtor viloyati). Natijada, yagona Turkiston xalqlari bir - biridan sun'iy ravishda uzoqlashtirildi. Bu hol sovetlarga o'lkada o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi.

Shu bilan birga bolsheviklar andozasidagi milliy-hududiy chegaralanish Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi bo'lajak millatlararo munosabatlar rivojiga to'siq bo'lishi, turli nizolar va keskin holatlar keltirib chiqarishi muqarrar edi.

Xalqaro maydonda mustamlakachilik tizimi hukm surar ekan tabiiyki milliy ozodlik harakatlari keng avj olishi muqarrar edi. Bolsheviklar ushbu o'tkazilgan siyosatlari tufayli xalqaro hamjamiyat oldida sobiq imperiya hududida yashab kelgan barcha milliy guruhlarning haq-huquqlari himoya etilganini, milliy masala hal etilganini da'vo etishlarini ta'minladi.

Markaziy Osiyoda o'tkazilgan milliy hududiy chegaralash va uning ijtimoiy siyosiy jarayonlar rivojiga ta'siri xususida yana shuni qayd etish lozimki Markaziy Osiyoda 1991-yildan keyingi milliy davlatchiliklar rivojini boshlab berilishida o'ziga xos ahamiyat kasb etdi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "Zamonaviy xalqaro geosiyosiy jarayonlar tizimida O'zbekiston va jahon hamkorligi" deb nomlangan bo'lib, unda avvalo "Yangi katta o'yin" konsepsiyasi va uning Yaqin Sharq va Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlar rivojiga ta'siri tahlil etilgan. Xalqaro munosabatlar tarixida "Yangi katta o'yin" atamasi (angl. *The New Great Game*) - Markaziy Osiyoda, Yaqin Sharqda, Kavkazda, Shimoliy Afrikada yuz berayotgan geosiyosiy jarayonlarni tavsiflash uchun ishlatib kelinmoqda²⁸.

Dastlab "Yangi katta o'yin" ning asosiy komponenti bo'lib Markaziy Osiyodagi geosiyosiy va geostrategik manfaatlar to'qnashuvi bo'lib chiqdi. 1979-yilning dekabrda sovet qo'shinlarining Afg'onistonga olib kirilishi AQSh ning mintaqadagi vaziyatga aralashuviga olib keldi. Sovet qo'shinlari mintaqada o'z geostrategik manfaatlarini himoya qiluvchi harbiy plasdarmalar paydo qiladi degan fikr AQSh hukmron doiralari xavotirga soldi. Kommunistik tizimning maqsad-rejalariga har qanday yo'l bilan bo'lmasin to'sqinlik qilish, qarshi zarbalar berish, rasmiy Moskva pozitsiyalarini zaiflashtirish uchun AQSh mujohidlarni harbiy-taktik, texnik, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlay boshladi. Shuningdek sovet hukumatining harbiy faollashuvi Eron, Pokiston va Xitoy ham tashvishga solmasdan qo'ymadi. Gap sovet agressiyasiga qarshi hamkorlikka asoslangan yashirin koalitsiyaning vujudga kelish sabablari haqida ketmoqda.

1991-yil oxirlariga kelib sovet tizimi qulagach AQSh, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Eron, Turkiya, YI davlatlari mintaqaga chuqurroq kirib kela boshladi. Tadqiqotda ushbu davlatlarning mintaqadagi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, energetik, fan va texnologiya sohasidagi manfaatlari, maqsadlari, geostrategik intilishlari yoritilgan.

Tadqiqotda "Yangi katta o'yin" siyosatining galdagi obyekt sifatida Yaqin Sharq ko'rsatib o'tilgan. Mintaqa o'zining tabiiy-geografik, geostrategik imkoniyatlari sabab turli to'qnashuvlar o'chog'i bo'lib qolmoqda. Shuningdek muammolarning qator tarixiy ildizlari ham mavjud. Negaki hudud uzoq yillar davomida G'arb davlatlarining mustamlakasi bo'lib keldi. Mintaqada yetakchilik uchun kurashayotgan kuchlar bir-biriga qarshi kurashda kurashning barcha usullaridan foydalanishmoqda. Shu sabab bir qator terrorchi tashkilotlar faoliyati ham keskin kuchaymoqda. Albatta bu kelishmovchiliklarning siyosiy mazmundagi, geosiyosiy mazmundagi, geostrategik mazmundagi, hududiy davolar ko'rinishidagi sabablari bor. Shu bilan birga hududning tabiiy-geografik imkoniyatlariga ham bir e'tibor berish foydadan xoli bo'lmasa kerak.

²⁸Jumaniyozov X.S. Geosiyosat va xalqaro munosabatlar tarixi. Monografiya.- Toshkent: «ZUXRA BARAKA BIZNES», 2023. 117-b

Yaqin Sharq davlatlarining ba'zi tabiiy geografik imkoniyatlarining ko'rsatkichlari:

Kategoriya	Maydoni kv/km	Aholisi mln kishi	Oltin zahirasi mld/dol	Neft mld bar	Gaz tr kub
Eron	1 648 000	86.758	69.8	151.6	33
Katar	11440	2.660	25.9	25.7	25.2
Iroq	434 100	48.640	61.8	143.1	3.1
Misir	947000	106.220	15.2	4.4	2.1
Quvayt	17820	4.3	29.2	101.5	1.7
Ummon	212500	5.653	15.8	4.7	0.84
Yaman	528000	34.83	4.7	2.8	0.47
Baxrayn	690	1.471	4.8	0.17	0.98
Suriya	185200	18.6	4.7	2.1	0.24
Saudiya Arabistoni	2 149 610	34.5	626	264	8.1
BAA	83600	4.28	43.7	97.8	6.8

Uzoq yillar davomida Yaqin Sharqda o'z yechimini topmasdan kelayotgan ziddiyatlar to'qnashuvi Arab-isroil mojarosi bo'lsa, endilikda Suriya muammosi kuchayib bormoqda. Odatda ushbu mintaqalar "Yangi Katta o'yin" siyosatining ob'ekti sifatida tarixiy tadqiqotlarda qayd etib kelinsa, ushbu tadqiqot davomida bu o'yinning yangi o'chog'i sifatida Sharqiy Yevropa ko'rsatib o'tildi. Faqat bu ukrain inqirozi o'zining ko'lami bilan ancha xavfli hisoblanadi.

"Yangi katta o'yin" konsepsiyasi va uning Yaqin Sharq va Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlar rivojiga ta'siri xususidagi tahlil yuzasidan aytish mumkinki, "Yangi katta o'yin" konsepsiyasining mazmun-mohiyati, uning zamirida vujudga kelayotgan geosiyosiy jarayonlarning rivojlanish xususiyatlarini, ishtirokchi davlatlarning geostrategik manfaatlarini atroflicha tahlili mamlakatimizning ahil qo'shnichilikka asoslangan tashqi siyosatni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek xalqaro maydonda jamiyat hayotining qator sohalarida gegemonlik qilish uchun kurashayotgan davlatlar xalqaro munosabatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etgan: tabiiy zahiralari, unumdor yerlar, energetik resurslar, qulay bozorlar ustidan egalik, geostrategik ahamiyatga ega nuqtalar ustidan nazorat va sh.k. Albatta har bir davlatning geoiqtisodiy va geostrategik manfaatlari bor ekan bu kurash davom etishi muqarrar. "Yangi katta o'yin" konsepsiyasi sabab vujudga kelayotgan turli to'qnashuvlar negizida tabiiy zahiralarga boy mintaqalarning erkin iqtisodiy rivojiga yo'l bermaslik, ularning mintaqasidagi turli nizolar sabab ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qilish, natijada ularni harbiy texnikalarni sotib olishlariga majbur qilish siyosati turganligi sir emas. O'z navbatida fuqarolarimizda xalqaro munosabatlar, jahon siyosati, dunyoning geosiyosiy manzarasi, geosiyosiy vaziyat, geosiyosiy mavqei va mamlakat xavfsizligiga tahdidlar bilan bog'liq barqaror e'tiqodlar, g'oyalar, an'analar,

qadriyatlar, munosabatlar tizimini o'zida aks ettiruvchi geosiyosiy madaniyatni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Galdagi masala sifatida xalqaro munosabatlar takomilida O'zbekiston va ShHT hamkorligi ko'rib chiqilgan. Shanxay Hamkorligi Tashkiloti nisbatan yosh tashkilot bo'lsada uning maydoni 34 mln kv.km dan ortiq, yer sharidagi umumiy quruqlikning salkam 25 % ini, Yevrosiyo umumiy maydonining esa 60 % ni tashkil etadi²⁹. Tashkilotga kiruvchi davlatlarda jami dunyo aholisining deyarli yarmisi istiqomat qiladi. Ishtirokchi-davlatlar tashkilot doirasida bepoyon mintaqada terrorizmga, separatizmga, narkotik savdosiga qarshi birgalikda kurashishga, iqtisod va ishlab chiqarish, energetika, savdo sohasida, fan va madaniyat sohalarida munosabatlarni yuksaltirishga kelishishgan. Fan-texnika sohasidagi yutuqlar, texnologiyalar, tabiiy zahiralari, ishchi kuchi, investitsiyalar, moliya borasidagi imkoniyatlardan ratsional foydalanish masalalari muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonning ShHT doirasidagi ko'p tomonlama hamkorligining sabablarini quyidagilarda ko'rish mumkin: birinchidan, mazkur tashkilotga a'zo davlatlarning siyosiy, iqtisodiy qaysidir ma'noda harbiy salohiyati yuqori bo'lib, bu omillar nafaqat terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashda, balki boshqa sohalarda olib borilayotgan hamkorlikda ham muhim ahamiyat kasb etadi; ikkinchidan, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi hamkorlikni rivojlantirish, tashkilotning katta potensialga ega ekanligi: jumladan; siyosiy sohada – O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarni samarali kechishini ta'minlashda, xalqaro munosabatlarning to'laqonli subyekti sifatida faoliyat yuritishida; iqtisodiy sohada – tabiiy-geografik, ilmiy-texnik, madaniyat sohasidagi noyob imkoniyatlardan unumli foydalanish, savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, tashkilot doirasida dengiz yo'llariga chiqish uchun qulay imkoniyatning mavjudligi, sanoat va xalq xo'jaligida hozirgacha tanqis bo'lib qolayotgan mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish, chet el investitsiyalari hajmining o'sishi va yangi texnologiyalarni kirib kelishiga imkon yaratish; ijtimoiy sohada mavjud migratsiya masalalarini hal qilish, ishsizlikni kamaytirish, kambag'allikni oldini olish va bartaraf etishda; ekologik sohada– mintaqadagi ekologik muammolarni bartaraf etish, oldini olish, o'ta keskin va murakkab ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish hamda suv tanqisligi muammosini bartaraf etishni yengillashtirishda; harbiy sohada – mamlakat harbiy qudratini yanada o'sishi hamda ichki davlat hamda mintaqa xavfsizligini ta'minlashda amaliy hamkorlikni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bobdagi so'nggi masala sifatida xalqaro munosabatlar takomilida O'zbekiston omili tahlil ostiga olingan. O'zbekiston Respublikasi xalqaro maydonda puxta o'ylangan, ahil qo'shnichilikka asoslangan tashqi siyosatni izchil amalga oshirib kelmoqda. Uning zamirida mamlakatimizning, xalqimizning, mintaqamizning tub manfaatlari, ko'p asrlik tarixi, madaniyati, an'ana va qadriyatlari, ezgu orzu-intilishlari yotadi.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan ijtimoiy hayotning qator sohalarida keng qamrovli hamkorlikni olib bormoqda. O'zbekistonni BMT tuzilmalari orqali dunyo hamjamiyatiga keng tanitish, O'zbekiston Rahbariyatining

²⁹ Жуманиёзов Х.С. Геосиёсат асослари: ўқув қўлланма. - Тошкент: Нодирабегим, 2021. 242-б

BMT doirasidagi tashabbuslarini amalga oshirishni ta'minlash, BMT va uning muassasalari bilan iqtisodiy-moliyaviy va konsultativ hamkorlikni rivojlantirish, BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan madaniy-gumanitar hamkorlikni jadallashtirish masalalariga keng e'tibor qaratilgan. Tashkilotning afg'on masalasini hal etishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirishdagi imkoniyatlaridan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyoning barcha davlatlarini tutashtirib turuvchi O'zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev Afg'onistonda tinchlikka erishishning yagona yo'li sifatida markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o'rtasida oldindan hech qanday shart qo'ymasdan, to'g'ridan-to'g'ri muloqot olib borish ekaniga keng jamoatchilik fikrini qaratdi. Muzokaralarda Afg'onistonda istiqomat qilayotgan aholining turli toifa vakillari ishtirok etishlari zarur. O'zbekiston Afg'onistonning iqtisodiy tiklanishiga, uning transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirishga, milliy kadrlarini tayyorlashga katta hissa qo'shmoqda va bundan keyin ham hissa qo'shadi. Afg'onistondagi vaziyatning barqarorlashishidan albatta qo'shni davlatlar manfaatdor.

Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari jahonning yetakchi davlatlari e'tiborini o'ziga jalb qilganligini quyidagi omillar bilan izohlashimiz mumkin: ushbu davlatlar Yevrosiyoning juda muhim geostrategik ahamiyat kasb etadigan qismida joylashgan, hudud qator tabiiy-geografik imkoniyatlarga boy va sh.k.

Mamlakatimiz shuningdek Islom hamkorlik tashkiloti bilan amaliy faoliyatini yuksaltirmoqda. Bu tashkilotga a'zo mamlakatlar o'zining tabiiy zahiralari, moliyaviy va fan-texnika sohalaridagi imkoniyatlarini birlashtirish keng istiqbolli hamkorlikning muhim omilidir. Shuningdek mamlakatimiz turli davrlarda MDH, ATR, JHShT, GUAM (2005-yilgacha) kabi tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini olib bordi.

